# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
# QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

OVJ7540

**M.X.NABIYEV**

ijrosini ta’minlash uchun.
***Muddat: 2026-yil 31-iyul***

**№5-6877**
2026-yil 27-iyul

**A.M.XAKIMOV**
Bo‘lim boshlig‘i

OVJ7540

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI

MINISTRY OF DIGITAL TECHNOLOGIES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

МИНИСТЕРСТВО ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

100001, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Ibrohim Mo‘minov ko‘chasi, 4-uy Tel: (+998) 71-238-41-07, 71-238-43-63, Fax: (+998) 71-238-41-74 info@digital.uz, www.digital.uz, digital@exat.uz

2026-y. «24» iyul 25-8/6693 «_____»______________ 2026 г.

OVJ7540

**“Raqamli texnologiyalar yo‘nalishida eng yaxshi startap” (“President Tech Award”) tanlovini o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita vakillari**

**“Sun’iy intellekt yo‘nalishida eng yaxshi startap” (“President AI Award”) tanlovini o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita vakillari**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sovrini uchun “Raqamli texnologiyalar yo‘nalishida eng yaxshi startap” **“President Tech Award”** tanlovini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi 2023-yil 15-fevraldagi 66-son qaroriga hamda 2026-yil 5-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun “Sun’iy intellekt yo‘nalishida eng yaxshi startap” (**“President AI Award”**) tanlovini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi 288-son qaroriga asosan yoshlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalar sohasidagi eksportga yo‘naltirilgan va jahon bozorida raqobatbardosh startap loyihalarini yanada qo‘llab-quvvatlash maqsadida har yili **“President Tech Award”** va **“President AI Award”** tanlovlarini o‘tkazish belgilangan.

Ushbu topshiriq ijrosini ta’minlash maqsadida, mamlakatimizda innovatsiyalar va tadbirkorlik uchun qulay muhit yaratish, shuningdek, yoshlar orasida startap madaniyatini rivojlantirish yuzasidan “Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalar texnologik parki direksiyasi” MChJ tomonidan har yili **“President Tech Award”** va **“President AI Award”** tanlovlarini tashkil etish ishlari olib borilmoqda.

Ayni vaqtda, tanlovlarda qatnashish istagini bildirganlarning arizalarini rasmiy veb-sayt (awards.gov.uz) orqali qabul qilish ishlari davom etmoqda.

Qishloq xo‘jaligi vazirligi

K/R: 5-6877 2026-yil 24-iyul

IJRO.GOV.UZ tizimi orqali ERI bilan tasdiqlangan, Hujjat kodi: KM55562941

Yuqoridagilarni inobatga olib, aholining startap madaniyati, yoshlar orasida IT sohasiga bo‘lgan qiziqishni yanada kuchaytirish hamda yurtimizda axborot texnologiyalari yo‘nalishidagi islohot va tashabbuslarni keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida, Sizdan o‘z rasmiy veb-saytlaringizda hamda ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalaringizda **“President Tech Award”** va **«President AI Award»** tanlovlari haqida raqamli ma’lumot bannerlari kontentni (ilova qilinadi) joylashtirish orqali mazkur tashabbusni targ‘ib qilish, iqtidorli yoshlar va startap tashabbuskorlarini mazkur tanlovlarda faol ishtirok etishga jalb etishda amaliy yordam berishingizni so‘raymiz.

*Ilova: elektron shaklda*

**Vazirning birinchi o‘rinbosari** **A.Sultonov**

OVJ7540

Ijr.: A.Rasulov
Tel.: (71) 238-43-74

OVJ7540

**“Raqamli texnologiyalar yo‘nalishida eng yaxshi startap” (“President Tech Award”) va “Sun’iy intellekt yo‘nalishida eng yaxshi startap” (“President AI Award”) tanlovini o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita vakillari**

| T/r | Vazirlik va idoralar nomi |
|---|---|
| 1. | Yoshlar ishlari agentligi |
| 2. | Iqtisodiyot va moliya vazirligi |
| 3. | Energetika vazirligi |
| 4. | Sog‘liqni saqlash vazirligi |
| 5. | Suv xo‘jaligi vazirligi |
| 6. | Qishloq xo‘jaligi vazirligi |
| 7. | Markaziy bank |
| 8. | Savdo-sanoat palatasi |
| 9. | Bojxona qo‘mitasi |
| 10. | Soliq qo‘mitasi |
| 11. | “Sun’iy intellekt va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish markazi” DM |
| 12. | “Kiberxavfsizlik markazi” DUK |
| 13. | AT “Aloqabank” |

OVJ7540